

O'ZBEK XALQINING URF-ODATLARI VA MAROSIMLARIDA MUSIQA SAN'ATINING O'RNI

Mirzayeva Komila Sheraliyevna

*Termiz ixtisoslashtirilgan san'at
maktabi 1-toifali o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalqining urf-odatlari va marosimlarida musiqa san'atining tutgan o'rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Marosim musiqasining tarixiy shakllanish jarayoni, asosiy janrlari hamda uning jamiyat hayotidagi ijtimoiy, ma'naviy va estetik vazifalari tahlil qilinadi. Xalq musiqasi milliy madaniyatni ifodalovchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: xalq musiqasi, marosim, urf-odat, an'anaviy qo'shiqlar, madaniy meros.

Аннотация

В статье рассматривается роль музыкального искусства в традициях и обрядах узбекского народа. Анализируются историческое развитие обрядовой музыки, её жанры, а также социальные, духовные и эстетические функции. Народная музыка трактуется как важнейшая часть национальной культуры.

Ключевые слова: народная музыка, обряды, традиции, ритуальные песни, культурное наследие.

Annotation

The article examines the role of musical art in the traditions and rituals of the Uzbek people. The historical development, main genres, and social, spiritual, and aesthetic functions of ritual music are analyzed. Folk music is interpreted as a significant component of national cultural heritage.

Key words: folk music, rituals, traditions, ritual songs, cultural heritage.

Kirish

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan urf-odat va marosimlar milliy musiqa san'ati bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Musiqa xalqning ijtimoiy hayoti, ruhiy kechinmalari va estetik qarashlarini ifodalovchi muhim san'at turi hisoblanadi. Ayniqsa, marosimlar jarayonida musiqa nafaqat badiiy bezak, balki marosimning mazmunini ochib beruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda milliy madaniyatni asrash va rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib, bu jarayonda xalq musiqasining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq musiqasi qadimiy davrlardan boshlab xalqning kundalik turmushi va marosimlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Tug'ilish, nikoh, mehnat faoliyati va motam marosimlarida ijro etiladigan kuy-qo'shiqlar xalq dunyoqarashini aks ettiradi. Tarixiy manbalarda karnay, surnay, doira, nog'ora kabi milliy cholg'ular marosimlarda keng qo'llangani qayd etiladi. Ushbu cholg'ular orqali marosimlarga tantanavorlik, ruhiy ko'tarinkilik bag'ishlangan. O'zbek xalq marosim musiqasining asosiy turlari quydagilarni o'z ichiga oladi.

Oilaviy marosim musiqasi- xalq marosim musiqasining katta qismini tashkil qiladi. Chunki insonning yovvoyi yashash tarzidan madaniy yashash tarziga o'tish, oila degan muqaddas narsaning yuzaga kelishi bilan bog'liq holda amalga oshdi. Insonning tug'ilishidan tortib to vafotigacha bo'lgan hayoti bevosita oila doirasida kechadi. Oilaviy-maishiy hayotda o'tkaziladigan har bir voqea maxsus marosimlar orqali kechadi ba bunday marosimlar turkumi rang-barang bo'lib, ular shartli ravishda turli guruhlariga bo'linadi.

Jumladan; To'y marosimlari, motam marosimlari, insonning sog'ligi, to'kin-sochinligini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi so'zning sexr-jodu qudratiga asoslanuvchi marosimlardir.

Oilaviy marosimlarga; To'y- "to'ymoq", "el yurtga ziyofat bermok", "yor do'stlar diydoriga to'yinmok" kabi ma'nolarni anglatib moddiy va madaniy oziqlanish marosimidir. O'zbek to'ylari shaklan rang-barang bo'lib, ular bir-birlaridan o'tkazilish tarzi, ishtirokchilar tarkibi, vazifalari hamda ijro etiluvchi aytim va qo'shiqlari jihatidan farq qiladi va bu marosimga oid qo'shiqlarga alla, to'y qo'shiqlari, kelin salom, lapar va yallalar kiradi. Alla qo'shiqlari bolaning ruhiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, onaning samimiy tuyg'ularini ifodalaydi. To'y marosimlaridagi qo'shiqlar esa quvonch, birlik va shodlik ramzi hisoblanadi. Chunonchi; beshik to'y marosimida to'y kayvonisi chaqaloqni yuqori ko'tarib quyidagi aytimni aytadi.

Shugina jonim, shu jonim
Bo'ynimdagi marjonim
Boshimdagi gultojim,
Xudo berdi sevsin deb,
Shu dunyoni ko'rsin deb.
Oltin beshik ham berdi,
Shu beshikka kirsin deb.

Chaqaloqqa go'zal tilaklar, olqishlar aytilib beshikka yotqiziladi.

Motam marosimi- inson umrining oxirini qayd etuvchi mungli marosimdir. Shu boisdan ushbu marosimda ijro etiluvchi aytimlar, marosim ishtirokchilari, ularning kiyim boshlari hamma-hammasi matamsaro va mungli xarakter kasb etadi. O'zbek motam marosimlari asosan yig'i-yo'qlov va motam yoy-yorlaridan iborat. Yig'i-

yo'qlovlarning temarik doirasi keng bo'lin, bu narsa yig'ichilarning hayotiy tajribasi va ruhiy dunyosi bilan shartlangan.

Motam marosimlarida ijro etiladigan yo'qlov va marsiyalar xalqning qayg'u-alamga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Ushbu musiqiy janrlar inson hayotining o'tkinchiligi haqidagi falsafiy qarashlarni mujassam etadi. Masalan, yig'i marhum farzandga qaratilgan bo'lsa ham, biroq unda yig'ichining shaxsiy dard-alami, ruhiy iztiroblari keng maishiy falsafiy planda ifodalanishi, y'ani yig'i tematikasi uning ob'yekti doirasidan tashqariga chiqib ketadi.

Ma'lumki, ota-oilaning boshi, farzandning baxt-iqbol. Uning o'limi oila a'zolarini qattiq iztirobga soladi. Shu boisdan farzandlarning maehum otaga nisbatan yig'ilari o'ta hazing tuyg'ular bilan to'lib-toshgan;

Kiygan to'yni yalangqat, voyotam,
Jon saqladi omonat, voy otam,
Omonat joning bor ekan, voy otam,
Kimga berding omanat, voy otam,

O'zbek xalq yig'ilarining tematik doirasi keng bo'lib, unda xalqning maishiy, ma'naviy hayoti, inson umrining falsafiy mohiyati, o'limning shafqatsizligidan nolish kabi motivlar badiiy ifodasini topgan.

Motam yor-yorlari turmush qurib, hayotda o'zidan biror iz qoldira olmagan balog'at yoshidagi qiz yoki ayrim joylarda uylanmagan yigit vafot etganda, murdani poklik suviga olib, kafanga o'rash paytida mungli ohangda aytiladi.

Odatda, bunday yor-yorlar professional yig'ichilar tomonidan ijro etiladi. Motam yor-yorlar professional yig'ichilar tomonidan ijro etiladi. Motam yor-yorlarida o'ng gulidan bir guli ochilmagan, hayotda hech narsa ko'rmay dunyodan ko'z yumgan qizga achinish, uning armon bilan ketganligiga kuyinish motivlari yetakchilik qiladi.

Hay-hay o'lan, hay o'lan, armonli qiz, yor-yor,
Onalari ko'ngliga darmonli qiz, yor-yor,
Oppoq qizim ketayapti u dunyoga kelinchak,
Oyim qizim sochlari qaro tolga halinchak.

Motam yor-yorlari uzoq tarixga ega bo'lib, ularda uzoq ajdodlarimizning ruhlar dunyosi er osti olami haqidagi tasavvurlari aks etgan. Shuning uchun ham motam yor-yorlarida kishilarning bu dunyodan xotirjam, barcha niyatlariga etishgan komil inson sifatida o'tishini istash g'oyasi olg'a surilgan.

Xulosa

Demak, o'zbek xalqining urf-odatlar va marosimlarida musiqa san'ati muhim ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega. U xalqning tarixiy xotirasi va milliy o'zligini aks ettiruvchi bebaho madaniy boylikdir. Marosim musiqasini ilmiy asosda o'rganish milliy madaniyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa san'atining

ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati marosim musiqasi jamiyatda birlashtiruvchi va tarbiyaviy vazifani bajaradi. U milliy an'analarni yosh avlod ongiga singdirib, ma'naviy merosni avloddan-avlodga yetkazadi. Musiqa marosimning ta'sirchanligini oshirib, inson ruhiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Rajabiy Y. O'zbek xalq musiqasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
3. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov-O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.
4. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent, 1993.
5. Jabborov I. O'zbek xalq marosimlari. – Toshkent: Fan, 2001.
6. Yunusov R. An'anaviy musiqa asoslari. – Toshkent: Musiqa, 2010.